MEDIA DISKURSLARINING LINGVOKULTUROLOGIK VA NOVERBAL TALQINI

Zaripboyeva Nafosat Maratovna,
O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: nafosat2502@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19547685

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “g‘urur” konsepti zamonaviy lingvokulturologiya, psixologiya va etika nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilinadi. G‘ururning shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni, uning qutbli semantik tabiati hamda madaniy konseptosferadagi o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda g‘ururning metaforik ifodalanishi, shkalaviy modeli, shakllanish omillari hamda ingliz, o‘zbek va turk madaniyatlaridagi lingvokulturologik namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *g‘urur, mag‘rurlik, kibr, lingvokulturologiya, konsept, metafora, noverbal muloqot, konseptosfera, madaniyat, vatanparvarlik.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the concept of “pride” from the perspectives of modern linguoculturology, psychology, and ethics. The role of pride in individual and social life, its bipolar semantic nature, and its specific features within the cultural conceptual sphere are examined. The study explores the metaphorical representation of pride, its scalar model, and the factors influencing its formation across English, Uzbek, and Turkish cultures.*

Keywords: *pride, arrogance, linguoculturology, concept, metaphor, nonverbal communication, conceptual sphere, culture, patriotism, emotion.*

Аннотация. *В данной статье концепт «гордость» рассматривается в контексте современной лингвокультурологии, психологии и этики. Анализируются место и роль гордости в жизни личности и общества, её биполярная семантическая природа и особенности функционирования в культурной концептосфере. Исследуются метафорические модели гордости, факторы её формирования, а также лингвокультурные особенности проявления в английской, узбекской и турецкой культурах.*

Ключевые слова: *гордость, высокомерие, лингвокультурология, концепт, метафора, невербальная коммуникация, концептосфера, культура, патриотизм, эмоции.*

Kirish. Zamonaviy lingvokulturologiya doirasida insonning axloqiy olami, ruhiy va psixologik holatini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar miqdori izchil ortib bormoqda. Global lingvokulturologik kontekstda “g‘urur” tushunchasi alohida konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan fenomenlardan biri sifatida qaraladi.

Psixologik, lingvistik, axloqiy va falsafiy manbalarni kompleks o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, g‘urur nafaqat alohida individ, balki butun jamiyat uchun ham muhim qadriyatdir. Tadqiqotchilar g‘urur tuyg‘usi hamda uning tajriba shakllarini shaxsning psixologik kamolotida ajralmas bosqich sifatida talqin qiladilar.

Etika fanida mag‘rurlik axloqiy kategoriya sifatida baholanadi. Rus etika lug‘atida g‘urur “ijtimoiy-axloqiy tuyg‘u bo‘lib, shaxsning o‘z-o‘zini anglashining namoyon shaklidir” deya izohlanadi. O‘zini hurmat qilish singari, g‘urur ham inson xatti-

harakatlarini muayyan me’yorlar asosida tartibga soladi, shaxsdan o‘z haqidagi tasavvurlariga mos keladigan xulqni talab etadi va uning qadr-qimmatini pasaytiruvchi harakatlardan tiyadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar g‘urur konseptini turli ilmiy yo‘nalishlar kesimida kompleks yoritishga xizmat qiladi. Jumladan, E.P. Il′inning ishlari g‘ururning emotsional-psixologik tabiatini ochib bersa, I.S. Kon tahriridagi etika lug‘ati uni ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida izohlaydi. S.G. Vorkachev g‘urur konseptini lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning til va madaniyatdagi o‘rnini asoslaydi. G. Lakoff va M. Johnson hamda Z. Kövecses tadqiqotlari g‘ururning metaforik va kognitiv asoslarini ochib berib, konseptual tizimdagi o‘rnini belgilaydi. D. Matsumoto va J. Tracy ishlarida esa g‘ururning noverbal ifodasi, uning universal va madaniy xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan. A.H. Fischer gender omilining emotsional ifodaga ta’sirini ko‘rsatadi.

Shuningdek, diniy manbalar, xususan, Qur’on tafsirlariga oid asarlar g‘urur va kibrning axloqiy bahosini ochib beradi. Umuman, mazkur adabiyotlar majmui g‘urur konseptining psixologik, lingvokulturologik, kognitiv va ijtimoiy jihatlarini har tomonlama yoritishga imkon yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borildi. Unda lingvokulturologik, kognitiv-semantik va diskursiv tahlil metodlari qo‘llanildi. G‘urur konseptining mazmunini ochishda konseptual tahlil hamda metaforik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mag‘rurlik o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonida konstruktiv vosita vazifasini bajarishi mumkin. U shaxsning mustaqilligi va ma’naviy yetuklik darajasini ko‘rsatuvchi indikator sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, g‘urur individning jamiyatdagi mavqei va maqomini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Psixologik nuqtai nazardan, g‘urur inson his-tuyg‘ulari va kechinmalarining natijasi sifatida shakllanadi. U turli ruhiy holatlarni boshdan kechirish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, xatolardan saboq chiqarish, dunyoqarashni kengaytirish hamda ma’naviy-ruhiy izlanishlar asosida tarkib topadi.

Biroq g‘ururning me’yoridan oshishi shaxsda o‘zini haddan tashqari yuqori baholash, bu bahoni boshqalarga ham tan oldirish istagi, hukmronlikka intilish, ojizlarni kamsitish va takabburlik kabi salbiy xususiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

G‘urur dunyo til tasvirining asosiy konseptlaridan biri sifatida milliy dunyoqarash koordinatalar tizimida yetakchi o‘rin tutadi hamda zamonaviy insonning mustaqilligi va ma’naviy yetuklik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

“Mag‘rur inson” tushunchasi ikki qutbli semantik talqinga ega. Bir tomondan, o‘z “men”ining ijobiy qadriyatini anglash shaxsning to‘laqonli rivoji uchun zarur. Ikkinchi

tomondan, g‘urur manmanlik va axloqiy tanazzul manbai sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Mazkur konseptning qutbli semantik tabiati uni murakkab, ammo madaniy tadqiqotlar uchun nihoyatda dolzarb obyektga aylantiradi.

Kulturologik yondashuv doirasida konsept turli fanlar ma’lumotlari asosida madaniyat elementi sifatida o‘rganiladi. Yu.S. Stepanov konseptni “inson ongidagi madaniyat bo‘lagi”, ya’ni so‘z bilan bog‘liq tasavvurlar, bilimlar, assotsiatsiyalar va tajribalar majmui sifatida talqin qiladi. Ilmiy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy hayotiy reallik ham nazariy qarashlarga mos keladi: mag‘rur shaxs o‘z-o‘zini anglash va takomillashtirish yo‘lida harakat qiladi, o‘z mamlakati bilan faxrlanadi va shu orqali jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida o‘zini namoyon etadi. Vorkachev ta’kidlaganidek, g‘urur ijtimoiy munosabatlar tuzilmasiga singib ketgan va ijtimoiy tuzilishga muhim sifatlar baxsh etadi.

Mag‘rurlikning psixologik tarkibi quvonch, qoniqish, ilhom va ishtiyoq kabi hissiyotlar orqali aktuallashadi. Biroq u ikkilamchi xususiyatga ega: bir tomondan kuch va ishonch manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan tanqidiylikni susaytirib, takabburlikka olib kelishi mumkin. G‘ururning muhim ko‘rinishlaridan biri vatanparvarlikdir. U Vatan, millat va uning yutuqlari bilan faxrlanishda namoyon bo‘ladi. Ammo me’yor buzilganda u shovinizm va milliy adovatga aylanish xavfini tug‘diradi.

Diniy talqinda g‘urur ko‘pincha kibr bilan bog‘lanib, salbiy mazmunda baholanadi. Qur’oni karim tafsirlarida mutakabbirlik insonni ilohiy haqiqatdan uzoqlashtiruvchi sifat sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, konseptosferada g‘ururning uch darajasi farqlanadi: quyi darajada kamtarlik, yuqori darajada kibr, o‘rta darajada esa neytral g‘urur mavjud.

Turli madaniy qatlamlarda g‘urur konsepti milliy mentalitet asosida turlicha ifodalanadi. Uning pragmatik mohiyati va semantik strukturasi turli tillarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Metafora esa mazkur konseptni anglash va ifodalashda muhim kognitiv mexanizm sifatida xizmat qiladi. Lakoff va Jonson metaforani inson tafakkuri va xatti-harakatlarining konseptual asosini tashkil etuvchi hodisa sifatida talqin qiladilar. Metaforik konseptualizatsiya manba sohasi va maqsad sohasi o‘rtasidagi strukturaviy moslik asosida amalga oshadi.

Tadqiqot davomida ingliz tilida 50 dan ortiq, o‘zbek tilida 100 ga yaqin, turk tilida 60–70 atrofida g‘urur bilan bog‘liq metaforik komponentlar aniqlangan. Media diskurslarda bu birliklar asosan ichki monologlarda namoyon bo‘ladi. Kövecses g‘ururning shkalaviy modelini ishlab chiqib, uning asosiy sabablarini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, yutuqlar, mulk, guruhga mansublik, tashqi ko‘rinish, qobiliyatlar va ijtimoiy mavqe kabi omillar g‘urur hissining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

G‘urur ko‘pincha bevosita nutqda emas, balki noverbal vositalar orqali ifodalanadi. Yuz ifodasi, bosh va qo‘l harakati, ovoz ohangi, tana pozitsiyasi kabi komponentlar

mag‘rurlik darajasini ochib beradi. Tracy va Matsumoto tadqiqotlari mag‘rurlikning biologik asoslangan noverbal ifodalarini tasdiqlaydi. Prototipik ifoda – boshning biroz orqaga og‘ishi, ko‘krakning kengayishi, qo‘llarning sonda joylashuvi va nim tabassumdir.

Turli madaniyatlarda tana imo-ishoralari farqlanishi mumkin. Matsumoto tadqiqotlari madaniy integratsiya jarayonida an’anaviy tana signallarining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Gender omili ham muhim: individualistik jamiyatlarda ayollar hissiyotlarini kuchliroq ifodalaydi. Ingliz, turk va o‘zbek kinossenariy matnlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, iyakning ko‘tarilishi, qoshning assimetrik joylashuvi, ko‘z qirini tashlash, qo‘llarni qovushtirish kabi elementlar mag‘rurlikni ifodalaydi. O‘zbek mentalitetida g‘urur andisha va izzat oralig‘ida talqin qilinadi. Ortiqcha takabburlik esa salbiy baholanadi.

Media diskursda ovoz tonining ko‘tarilishi, istehzoli tabassum, boshning yuqoriga qayrilishi hukmronlik va ustunlikni bildiradi; boshni egish, yuzni yashirish esa kamtarlikni anglatadi. Sport tadqiqotlari ham g‘urur ifodasining universal komponentlarini tasdiqlaydi. Kelgusidagi izlanishlar g‘urur ifodasining ijtimoiy kontekst, madaniyat va shaxsiy yutuqlar bilan bog‘liqligini chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Xulosa. G‘urur konsepti ko‘p qirrali va qutbli mazmunga ega bo‘lib, u shaxs va jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. U ijobiy (o‘zini anglash, motivatsiya) va salbiy (kibr, manmanlik) jihatlarni o‘zida mujassam etadi.

Tadqiqot natijalari g‘ururning turli madaniyatlarda o‘ziga xos ifodalanishini, lekin umumiy kognitiv va emotsional asosga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, u ko‘pincha noverbal vositalar orqali namoyon bo‘lib, ijtimoiy-madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Il′in E.P. Emotsii i chuvstva. – Saint Petersburg: Peter, 2001.
2. Гордость. Словарь по этике / ред. И.С. Кон. – Москва: Политиздат, 1981.
3. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт. – Филологические науки, 2001, №1.
4. Kurtubi E.A.M. Elcamiul li Ahkamil Kur'an. – Darul Kutup, 1384.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
6. Kövecses Z. Metaphors of Anger, Pride and Love. – Amsterdam: John Benjamins, 1986.
7. Tracy J.L., Matsumoto D. The spontaneous expression of pride and shame. – PNAS, 2008.
8. Matsumoto D. Culture and nonverbal behavior. – The SAGE Handbook of Nonverbal Communication, 2006.
9. Fischer A.H. Gender and Emotion. – Cambridge University Press, 2000.
10. Tracy J.L., Robins R.W. The nonverbal expression of pride. – Journal of Personality and Social Psychology, 2008.